

**KASB-HUNAR MAKTABLARIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING
TRANSFORMATSIYASI: AN'ANADAN RAQAMLI YONDASHUVGA****Mehribon Qurbonova Egam qizi***Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti Psixologiya yo'nalishi I-kurs magistranti**Email: mehribonqurbonova26@gmail.com***MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received: 11.06.2026**Revised: 12.06.2026**Accepted: 13.06.2026***KALIT SO'ZLAR:**

*psixologik xizmat,
raqamli
transformatsiya, kasb-
hunar ta'limi,
psixodiagnostika,
telepsixologiya,
psixologik xavfsizlik,
raqamli pedagogika*

Ushbu maqolada kasb-hunar maktablarida psixologik xizmat tizimining an'anaviy modeldan raqamli transformatsiyaga o'tish jarayoni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Global ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning tezkor rivojlanishi psixologik xizmatni tashkil etish, psixodiagnostika va psixoprofilaktika jarayonlarini tubdan yangilash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Tadqiqotda an'anaviy yondashuvning cheklovlari, raqamli psixologik xizmatning afzalliklari hamda inson omili va texnologiya o'rtasidagi muvozanat muammosi yoritiladi. Shuningdek, o'quvchilarning psixologik xavfsizligi, ma'lumotlar maxfiyligi va raqamli tengsizlik kabi global muammolar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan yechimlar taklif etiladi..

KIRISH: Zamonaviy dunyoda ta'lim tizimi global raqamli transformatsiya jarayonining eng faol sohalaridan biriga aylanib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi nafaqat o'quv jarayonini, balki ta'lim muassasalarida psixologik xizmat ko'rsatish tizimini ham tubdan o'zgartirmoqda. Ayniqsa, kasb-hunar maktablarida o'quvchilarning kasbiy moslashuvi, psixo-emotsional barqarorligi va ijtimoiy integratsiyasi masalalari psixologik xizmat samaradorligiga bevosita bog'liqdir. Bugungi kunda global miqyosda uchrayotgan asosiy muammolardan biri — an'anaviy psixologik xizmat

tizimlarining zamonaviy talablar bilan mos kelmasligidir. Klassik yondashuvlarda diagnostika va maslahat jarayonlari ko'pincha vaqt talab qiluvchi, subyektiv va cheklangan qamrovga ega bo'lib qolmoqda. Bu esa o'quvchilarning psixologik ehtiyojlarini tezkor aniqlash va ularga individual yondashuvni ta'minlashda qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar — sun'iy intellekt, big data tahlili, onlayn platformalar va telepsixologiya tizimlari psixologik xizmatni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ushbu yondashuvlar diagnostika jarayonlarini avtomatlashtirish, real vaqt rejimida monitoring qilish hamda psixologik yordamni masofadan turib taqdim etish imkonini beradi.

Bu jarayonning dolzarbligini davlat miqyosida ham alohida ta'kidlab o'tilgan: "Raqamli iqtisodiyot va raqamli texnologiyalarni rivojlantirmasdan turib, biz hech qachon zamonaviy taraqqiyotga erisha olmaymiz."¹⁹ Biroq bu jarayon yangi muammolarni ham yuzaga keltirmoqda: ma'lumotlar maxfiyligi, raqamli xavfsizlik, inson omilining kamayishi va texnologik tengsizlik kabi omillar shular jumlasidandir.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi kasb-hunar maktablarida psixologik xizmatning an'anaviy modeldan raqamli modelga transformatsiya jarayonini tahlil qilish, uning afzalliklari va xavflarini ilmiy asosda yoritish hamda integrativ yondashuv asosida samarali modelni taklif etishdan iboratdir.

Psixologik xizmatning evolyutsion paradigmasi. Kasb-hunar ta'limi tizimida psixologik xizmat dastlab an'anaviy pedagogik-psixologik yondashuv asosida shakllangan bo'lib, uning asosiy vazifasi o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy moslashuvini qo'llab-quvvatlashdan iborat bo'lgan. Evolyutsion nuqtai nazardan qaraganda, psixologik xizmat uch asosiy bosqichni bosib o'tgan: diagnostik, korreksion va rivojlantiruvchi bosqich. Birinchi bosqichda asosiy e'tibor individual muammolarni aniqlashga qaratilgan bo'lsa, keyingi bosqichlarda profilaktika va rivojlantirish funksiyalari kuchaydi. Biroq bu model zamonaviy raqamli muhitda yuzaga kelgan tezkor psixologik o'zgarishlarni to'liq qamrab ololmaydi. Shu sababli psixologik xizmatning yangi paradigmasi — raqamli va adaptiv yondashuv shakllanmoqda.

Raqamli psixologiya: 1. Yangi epistemologik bosqich. Raqamli psixologiya — bu inson psixikasini o'rganish va qo'llab-quvvatlashda axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt va algoritmik tahlildan foydalanadigan zamonaviy yo'nalishdir. Bu bosqichda psixologik xizmat faqat inson bilan muloqotga emas, balki raqamli ma'lumotlar oqimiga ham asoslanadi.

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning raqamli iqtisodiyot va texnologiyalarni rivojlantirishga oid nutqlaridan umumiy mazmun asosida keltirildi. (Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy chiqishlari va ma'ruzalar to'plami, 2018–2024).

Telepsixologiya, onlayn testlar va avtomatlashtirilgan tahlil tizimlari psixologik diagnostikani yangi darajaga olib chiqdi. Endilikda psixolog faqat kuzatuvchi emas, balki ma'lumotlar interpretatori va raqamli tizim boshqaruvchisiga ham aylanmoqda. Bu esa epistemologik jihatdan psixologiya fanining metodologik chegaralarini kengaytirmoqda.

Raqamli psixologiyani yangi epistemologik bosqichi inson psixikasini o'rganishda ma'lumotlarga asoslangan yondashuvning ustuvorlashuvi bilan tavsiflanadi. Bu jarayonda psixologik bilimning shakllanishi klassik introspektiv va test usullaridan chiqib, raqamli muhitda hosil bo'ladigan katta ma'lumotlar asosida qayta qurilmoqda. Rus olimi A. G. Asmolov bu jarayonni quyidagicha izohlaydi: "Zamonaviy psixologiya tobora o'zgarib borayotgan raqamli dunyoda inson xulq-atvorining variativligi haqidagi fan bo'lib bormoqda".²⁰

2. "DIGITAL STUDENT PROFILE": O'quvchining psixologik raqamli pasporti.

Raqamli psixologik profil — bu o'quvchining emotsional, kognitiv va xulqiy holatini real vaqt rejimida aks ettiruvchi integratsiyalashgan ma'lumotlar tizimidir. Ushbu modelda har bir o'quvchi "psixologik raqamli pasport"ga ega bo'ladi. Profil quyidagi komponentlardan iborat:

- emotsional barqarorlik indeksi;
- stress darajasi ko'rsatkichlari;
- ijtimoiy moslashuv darajasi;
- o'qish motivatsiyasi dinamikasi.

Bu tizim yordamida psixologlar o'quvchining holatini faqat statik emas, balki dinamik jarayon sifatida kuzatish imkoniga ega bo'ladi.

3. Psixologik xizmatning intelligent modelga transformatsiyasi. Psixologik xizmatning rivojlanishi bugungi kunda "intelligent model"ga o'tish bosqichiga kirgan. Bu modelda inson va sun'iy intellekt o'zaro hamkorlikda ishlaydi. AI tizimlari katta hajmdagi psixologik ma'lumotlarni tahlil qiladi, patternlarni aniqlaydi va xavf ehtimolini hisoblaydi. Biroq yakuniy qaror har doim inson psixologi tomonidan qabul qilinadi. Bu gibrid yondashuv psixologik xizmat sifatini oshiradi va xatolik ehtimolini kamaytiradi.

4. Psixologik xizmatda risk qilish. Risk identifikatsiya tizimi — bu o'quvchilarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan psixologik muammolarni erta aniqlashga qaratilgan algoritmik modeldir. Bu tizim stress, depressiya, agressiya va ijtimoiy izolyatsiya kabi

²⁰ Асмолов А. Г. — zamonaviy psixologiyada variativlik va madaniy-tarixiy yondashuv bo'yicha ishlari asosida (Asmolov A.G., "Психология современности", ilmiy konseptual qarashlar, 2010–2020-yillar ishlanmalari).

indikatorlarni tahlil qiladi. Tizimning asosiy maqsadi — reaktiv emas, balki proaktiv psixologik xizmatni ta'minlashdir. Ya'ni muammo yuzaga kelgandan keyin emas, balki u shakllanayotgan bosqichda aniqlanadi va oldini olish choralari ko'riladi.

5. Global muammolar, raqamli psixologiyadagi etik dilemmalar. Raqamli psixologik xizmat rivojlanishi bilan birga bir qator global muammolar yuzaga chiqmoqda. Eng asosiy muammo — ma'lumotlar maxfiyligi va xavfsizligidir. O'quvchilarning psixologik profillari juda sezgir ma'lumot bo'lib, ularning noto'g'ri ishlatilishi jiddiy etik oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shuningdek, algoritmik bias (tizimli xatoliklar), raqamli tengsizlik va insoniy empatiyaning kamayishi kabi muammolar ham dolzarbdir. Bu muammolar psixologik xizmatni faqat texnologik emas, balki etik-falsafiy yondashuv asosida ham rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Ingliz olimi Luciano Floridi raqamli muhitdagi axloqiy muammolarni quyidagicha izohlaydi: “Maxfiylik nimanidir yashirish emas, balki raqamli muhitda shaxsiy axborot oqimining to'g'ri boshqarilishidir”.²¹

6. Optimal model, integrativ psixologik ekosistema. Integrativ psixologik ekotizim — bu an'anaviy psixologik metodlar va raqamli texnologiyalarni birlashtirgan kompleks modeldir. Bu tizimda psixolog, o'qituvchi, ota-ona va AI birgalikda ishlaydi. Ekotizimning asosiy vazifasi:

- o'quvchining psixologik holatini kompleks monitoring qilish;
- erta ogohlantirish tizimini yaratish;
- individual rivojlanish traektoriyasini belgilash. Bu model ta'lim muassasasini “reaktiv tizim”dan “intelligent adaptiv tizim”ga aylantiradi.

7 Psixologik xizmatning futurologik rivoji. Kelajakda psixologik xizmat to'liq raqamli ekotizimga aylanishi kutilmoqda. Emotion AI, behavior prediction va neurodata analysis kabi texnologiyalar psixologiyaning yangi bosqichini shakllantiradi. Biroq bu jarayonda inson omili yo'qolmasligi kerak. Psixolog kelajakda faqat diagnost emas, balki “raqamli ong interpretatori” sifatida faoliyat yuritadi. Eng ideal model — texnologiya va insoniy empatiya uyg'unligidir.

Kasb-hunar maktablarida psixologik xizmat an'anaviy tarzda asosan suhbat, kuzatuv, test va profilaktik ishlar orqali amalga oshirib kelingan. Biroq raqamli texnologiyalarning kirib kelishi bilan bu tizim bosqichma-bosqich raqamli diagnostika va onlayn monitoringga asoslangan integrativ modelga o'tmoqda. Zamonaviy yondashuvga ko'ra, o'quvchilarning

²¹ Floridi L. The Ethics of Information, Oxford University Press, 2013.

psixologik holati faqat kabinet sharoitida emas, balki ularning kundalik raqamli faolligi, ta'lim platformalaridagi ishtiroki va kommunikativ xulqi orqali ham baholanmoqda. Bu jarayon psixologik xizmatni reaktiv modeldan proaktiv va prediktiv modelga aylantirmoqda.

Tadqiqot. Toshkent shahridagi kasb-hunar maktabi o'quvchilarida eksperiment o'tkazilganda ulardagi an'anaviy psixologik baholash va raqamli monitoring asosidagi baholash natijalari solishtirildi.

Ishtirokchilar: 10 nafar 16-18 yosh toifasida qamrab olindi. Ularning 5 nafari texnologik yo'nalish, 5 nafari esa xizmat ko'rsatish(servis) yo'nalishi. O'quvchilarda quyidagi metodlar:

- an'anaviy psixologik suhbat;
- stress va xavotir testi (qisqa shakl);
- raqamli xulq monitoringi (1 hafta davomida);
- onlayn platformalarda faollik;
- kechki faoliyat va uyqu rejimi;
- ijtimoiy tarmoqdagi interaktsiya chastotasi.

Tadqiqot natijalari. An'anaviy metod natijalari. 10 o'quvchidan 3 tasida yuqori stress belgilari aniqlangan, 4 tasida o'rtacha xavotir, 3 tasida normal holat.

Raqamli monitoring natijalari. Raqamli tahlil quyidagilarni ko'rsatdi: 6 nafar o'quvchida kechasi 00:00 dan keyin faol internet foydalanish mavjud, 4 nafar o'quvchida ijtimoiy tarmoqlarda keskin emotsional postlar kuzatildi 5 nafar o'quvchida ta'lim platformalariga kirish beqaror (motivatsiya pasayishi indikatori).

Solishtirma tahlil. Natijalar shuni ko'rsatdiki, an'anaviy testlar faqat moment (bir lahzalik) holatni aniqlaydi, raqamli monitoring esa uzluksiz xulqiy dinamikani ochib beradi. Masalan: 2 nafar o'quvchi testda "normal" chiqqan bo'lsa-da, raqamli ma'lumotlarda yuqori emotsional beqarorlik kuzatildi. Bu holat psixologik xizmatda "yashirin stress" fenomenini ko'rsatadi. Tadqiqot natijasi quyidagi ilmiy xulosani beradi: "Raqamli izlar" o'quvchining psixologik holatini an'anaviy metodlarga qaraganda erta bosqichda aniqlash imkonini beradi.

Muhokama. Kasb-hunar maktablarida psixologik xizmat transformatsiyasi shuni ko'rsatadiki, psixolog endi faqat diagnost emas, balki raqamli ma'lumotlarni tahlil qiluvchi interpretatorga aylanmoqda. Bu jarayonda sun'iy intellekt va monitoring tizimlari yordamchi vosita sifatida:

- xavf guruhini aniqlash;
- motivatsiya pasayishini kuzatish;
- ijtimoiy moslashuvni baholashda qo'llanilmoqda

Xulosa qiladigan bo'lsak. Kasb-hunar maktablarida psixologik xizmat an'anaviy modeldan raqamli modelga o'tishi:

- diagnostikaning aniqligini oshiradi;
- muammolarni erta aniqlash imkonini beradi;
- psixologik xizmatni uzluksiz monitoring tizimiga aylantiradi.

XULOSA. Kasb-hunar maktablarida psixologik xizmatning an'anaviy modeldan raqamli yondashuvga transformatsiyasi zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim ilmiy-amaliy yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. O'tkazilgan nazariy tahlil va kichik empirik tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, an'anaviy psixologik xizmat usullari (suhbat, test, kuzatuv) o'quvchilarning psixo-emotsional holatini faqat vaqtinchalik va statik kesimda baholash imkonini beradi, xolos. Bu esa zamonaviy raqamli muhitda shakllanayotgan tezkor va dinamik psixologik o'zgarishlarni to'liq qamrab ololmaydi. Raqamli psixologik yondashuv esa o'quvchilarning xulqiy, emotsional va kognitiv holatini uzluksiz monitoring qilish, katta ma'lumotlar asosida tahlil qilish hamda erta ogohlantirish tizimlarini shakllantirish imkonini bermoqda. Ayniqsa, "digital student profile" va intelligent psixologik xizmat modellari o'quvchilarning individual rivojlanish traektoriyasini aniqlashda yuqori aniqlik va operativlikni ta'minlaydi. Tadqiqot natijalari asosida shuni ta'kidlash mumkinki, raqamli monitoring an'anaviy diagnostikaga nisbatan yashirin psixologik muammolarni (yashirin stress, emotsional beqarorlik, motivatsiya pasayishi) erta aniqlashda samaraliroq vosita hisoblanadi. Bu esa psixologik xizmatni reaktiv yondashuvdan proaktiv va prognoz qiluvchi (prediktiv) tizimga aylantiradi. Shu bilan birga, raqamli psixologik xizmatning keng joriy etilishi bir qator etik va metodologik muammolarni ham yuzaga keltiradi. Ma'lumotlar maxfiyligi, algoritmik xatoliklar, inson omilining kamayishi hamda raqamli tengsizlik kabi omillar ushbu tizimni ehtiyotkorlik bilan, insoniylik tamoyillari bilan uyg'un holda rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Kasb-hunar maktablarida psixologik xizmatning raqamli transformatsiyasi ta'lim muassasasini "reaktiv tizim"dan "intelligent adaptiv ekotizim"ga aylantiradi. Kelgusida ushbu yo'nalishning muvaffaqiyatli rivojlanishi inson omili va sun'iy intellekt integratsiyasiga, shuningdek, psixologik xizmatning etik-me'yoriy asoslarini mustahkamlashga bevosita bog'liq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Асмолов А.Г. Психология современности: вариативность поведения человека в цифровом мире. Москва, 2019.

2. Выготский Л.С. Мышление и речь. Москва: Педагогика, 1982.
 3. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. Москва, 1975.
 4. Флориди Л. Этика информации. Oxford University Press, 2013.
 5. Turkle S. Reclaiming Conversation. Penguin Books, 2015.
 6. Castells M. The Rise of the Network Society. Wiley-Blackwell, 2010.
 7. Goleman D. Emotional Intelligence. Bantam Books, 1995.
 8. Harari Y.N. Homo Deus. Harper, 2016.
 9. Boyd D., Crawford K. Big Data in Psychology. Information Society Journal, 2012.
 10. Kuss D.J., Griffiths M.D. Internet Addiction Studies. 2017.
 11. G'oziyev E.G'. Ontogenez psixologiyasi. Toshkent, 2010.
 12. Nishanova Z.T. Yosh davrlari psixologiyasi. Toshkent, 2013.
 13. Abdurahmonov F.R. Kasb psixologiyasi. Toshkent, 2018.
 14. Qodirov B.R. Kasbiy tashxis metodikalari. Toshkent, 2000.
 15. Davletshin M.G. Kasb psixologiyasi asoslari. Toshkent, 2003.
 16. Yusupova F.I. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish psixologiyasi. Toshkent, 2005.
 17. Rajabova M. Maktabgacha psixologik xizmat tizimi. Science and Education, 2022.
 18. Yoqubxo'jayeva M. Raqamli avlod psixologiyasi. Science and Education, 2026.
 19. Nabijonova D. Kasb tanlash psixologiyasi. Toshkent, 2002.
 20. Jalolov A. Kasb qanday tanlanadi. Toshkent, 2010.
- Saytlar:
21. Ziyonet ta'lim portali — <https://ziyonet.uz> ;
 22. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy sayti — <https://president.uz> ;
 23. OAK ilmiy jurnallari bazasi — <https://tadqiq.uz> ;
 24. Science and Education elektron jurnali — <https://openscience.uz> ;
 25. Pedagoglar va psixologlar ilmiy platformasi — <https://pedagogs.uz>.